

ABU HAFS NASAFIY “MATLA‘ AN-NUJUM VA MAJMA‘ AL-ULUM” TO‘PLAMIGA TARKIBIDAN O‘RIN OLGAN FIQHIY ASARLARI

LEGAL WORKS OF ABU HAFS NASAFI INCLUDED IN THE COLLECTION “MATLA‘ AN-NUJUM AND MAJMA‘ AL-ULUM”

**ЮРИДИЧЕСКИЕ ТРУДЫ АБУ ХАФС НАСАФИ,
ВКЛЮЧЕННЫЕ В СБОРНИК “МАТЛА АН-НУДЖУМ И МАДЖМА
АЛЬ-УЛУМ”**

Hafizov Najmiddin Abdurashidovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada o'rta asrlarda yashagan yetuk insklopedik olim Abu Hafs Umar Nasafiyning qisman hayoti va ijodi aks ettirilgan. Undan so'ng Abu Hafs Nasafiyning ilmiy ijodiga bevosita tasir qilgan Nasaf vohasi haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi. O'rta asrlarda Samarqand va Buxoro ilmiy muhiti haqida va olimning bu shaharlarda ilm qirralarini zabit etganligi aytiladi. Undan so'ng Nasafiy islom ilmlarining fiqh sohasiga oid asarlari haqida ma'lumot beriladi. Ular ikkiga bo'lib o'rghaniladi. Jumladan ular Nasafiyning “Matla‘ an-nujum va majma‘ al-‘ulum” (“Yulduzlarning chiqish joyi va ilmlar majmuasi”) asariga kiritilgan fiqhiy asarlari va bu to'plamdan joy olmagan fiqhiy kitoblariga bo'lib o'rghanilgan. Ushbu maqolada esa “Matla‘ an-nujum va majma‘ al-‘ulum” to'plami tarkibiga kirganlari o'rghaniladi.

Abstract: The article reflects the partial life and work of Abu Hafs Umar Nasafiy, a mature encyclopedic scholar who lived in the Middle Ages. After that, brief information about the oasis of Nasaf, which directly influenced Abu Hafs Nasafiy's scientific work, will be given. It is said about the scientific environment of Samarkand and Bukhara in the Middle Ages and that the scientist conquered the

edges of science in these cities. After that, information about the works of Nasafi Islamic sciences related to the field of jurisprudence will be given. They are studied in two. In particular, they were studied in jurisprudential works included in Nasafi's "Matla' an-nujum wa majma' al-'ulum" ("The Rise of the Stars and Complex of Sciences") and jurisprudential books that were not included in this collection. This article examines those included in the "Matla' an-nujum wa majma' al-'ulum" collection.

Аннотация: В статье отражена жизнь и деятельность Абу Хафса Умара Наджмуддина ан-Насафи, зрелого учёного-энциклопедиста, жившего в средние века. После этого будут даны краткие сведения об оазисе Насаф, оказавшем непосредственное влияние на научную деятельность Абу Хафса Насафи. Рассказывается о научной среде Самарканда и Бухары в средние века и о том, что ученый покорил края науки в этих городах. После этого будет дана информация о трудах Насафи исламских наук, относящихся к области юриспруденции. Они изучаются вдвоём. В частности, они изучались в юридических трудах, вошедших в сборник Насафи «Матла ан-нуджум ва маджма аль-улум» («Восхождение звезд и комплекс наук»), и юридических книгах, не вошедших в этот сборник. В данной статье рассматриваются те, которые вошли в сборник «Матла ан-нуджум ва маджма аль-улум».

Kalit so‘zlar: Nasaf, fiqh, faqih, Movarounnahr, Matla‘ an-nujum va majma‘ al-‘ulum, Tilbatut-talaba, Usulul-fiqh, Furuul-fiqh, fiqhiy lug‘at, qozi kalon.

Key words: Nasaf, jurisprudence, jurisprudence, Movarounnahr, Matla' an-nujum wa majma' al-'ulum, Tilbatut-talaba, Usul-fiqh, Furu'l-fiqh, jurisprudential dictionary, Qazi Kalon.

Ключевые слова: Насаф, юриспруденция, юриспруденция, Моваруннахр, Матла ан-нуджум ва маджма аль-улум, Тильбатут-талаба, Усул-фикх, Фуроуль-фикх, юридический словарь, Кази Калон.

Alloma Abu Hafs Nasafiy hijriy 461 yoki 462-yilda, milodiy 1068-1070-yilda Nasaf vohasida tug‘ilib, hijriy 537-yil 12 yoki 13-jumodul-ulo, milodiy 1142-yil 3 yoki 4-oktyabr kuni Samarqandda vafot etgan hamda o‘scha yerdagi Chokardiza qabristoniga, Imam Moturidiy qabri yoniga dafn etilgan¹. Olimning to‘liq ismini manbalarda Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil ibn Muhammad ibn Ali ibn Luqmon an-Nasafiy as-Samarqandiy al-Hofiz al-Faqih az-Zohid al-Hanafiy tarzida uchratish mumkin.

Alloma o‘zidan keyingilar uchun katta foyda bo‘lib qolgan ko‘plab asarlar yozib qoldirib, ulardan ilmning barcha tarmoqlarida bugunga qadar ahli ilmlar keng ko‘lamda foydalanib kelmoqdalar. Bu maqolada esa Abu Hafs Nasafiy “Matla‘ an-nujum va majma‘ al-ulum” to‘plami tarkibidan o‘rin olgan fiqhiy asarlarini keltirib o‘tish iroda qilindi.

Hanafiylik mazhabi doirasida fiqh ilmida sermahsul ijod qilgan Abu Hafs Nasafiyning tarixiy manbalarda ushbu sohada ko‘plab asarlar yozib qoldirganligi aytildi. Abu Hafs Nasafiy yozib qoldirgan asarlarining ichida eng mashxur va hajmi kattasi bu “Matla‘ an-nujum va majma‘ al-‘ulum” (“Yulduzlarning chiqish joyi va ilmlar majmuasi”) asaridir. Bu asar o‘rtalashtirishda ta’lim tizimiga xos xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan katta manbadir. Bu bir katta to‘plam bo‘lib 56ta asarlarni o‘z ichiga olgan. Ular esa 23ta ilm tarmoqlariga bo‘lingan. 40ta asar Abu Hafs an-Nasafiy qalamiga mansub, 16ta asar boshqa mualliflarga tegishli, ular qayta ishlangan.² Bu qo‘lyozma 1364-yili boshqa nusxdadan ko‘chirilgan. Asl nusxa esa, o‘z navbatida, 1138-yili Abu Hafs Nasafiyning bevosita imlo darslari davomida yozib olingan. Avvalgi ikki asar kalom ilmiga, uchinchi asar firqalar tavsifiga, 4-7 – axloq, 8-11 – qur’oniylar, 12 – usul al-fiqh, 13-19 – hanafiy fiqhi (120 sahifali katta qism), 28-29 – hujjat tuzish namunalari, qolgan asarlar filologiya, matematika,

¹ Раҳимжонов Д. Абу Ҳафс Насафий ва унинг «Китоб ал-қанд» асари / Монография. – Тошкент: Илм олий мактабаси, 2020. – 20 б.

² Муҳаммадаминов С.А. Абу Ҳафс ан-Насафиининг “Матла ан-нужум ва мажма ал-улум” асари ва унинг Марказий Осиё ислом илмлари ривожида тутган ўрни (XI аср охири - XII аср ўрталари): тарих ф.н. ... дисс. Автореферат – Тошкент: ЎзР ФАШИ, 2012. – 20 б.

tabiiyot sohalariga bag'ishlangan.³ Bu to'plamning hozircha bizga ma'lum bo'lgan yagona nusxasi O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 1462 raqami bilan saqlanadi. Ushbu asar bo'yicha yurtimizda ustoz S.A.Muhammadaminov "Abu Hafs an-Nasafiyning "Matla‘ an-nujum va majma‘ al-‘ulum" asari va uning Markaziy Osiyo islom ilmlari rivojida tutgan o'rni (XI asr oxiri - XII asr o'rtalari)" nomi bilan asarni atroflicha tadqiq etib doktorlik ishini ham yoqlagan.⁴

Olim Abu Hafs Nasafiy fiqh ilmida yozgan asarlarning aksariyatini shu to'plamida bir joyga jamlaganligi sabab ushbu to'plam haqida yuqorida qisqa qilib ma'lumot berildi. Abu Hafs Nasafiy fiqhga oid yozgan ko'plab asarlarining oz qismi bizning davrgacha yetib kelishi taajjublidir. Albatta bunga ichki va tashqi sabablar bo'lgan. Eng qizig'i shundaki, olimning bugungi kunda bor asarlari ham to'lig'icha o'rganilmaganligining dissertatsiyani yozish jarayonida guvohi bo'lindi. Olimning ushbu majmuasidagi fiqhga oid asarlar to'plamning uchdan bir qismini tashkil qiladi.⁵

Abu Hafs Nasafiyning fiqhga oid asarlarini o'rganishni yuqoridagi to'plam tarkibidagilarini o'rganish bilan boshlaymiz. Demak olimning fiqhiy kitoblarining aksari shu majmuada jamlangan bo'lib, allomaning fiqhiy kitoblarini ikki qismga bo'lib o'rganamiz. Dastlab, "Matla‘ an-nujum" to'plami tarkibiga kirgan fiqhiy asarlari, undan so'ng esa majmuaga kirmagan fiqhiy kitoblarini o'rganamiz.

Abu Hafs Nasafiyning "Matla‘ an-nujum" to'plami tarkibiga kirgan fiqhiy asarlарини ham ikki qismga bo'lish mumkin. Sababi fiqh ilmining o'zi ham "Usulul-fiqh" va "Furuul-fiqh" kabi bo'limlarga bo'lib o'rganilganligi uchun Umar Nasafiy ham har ikkala yo'nalishda asarlar yozganligining guvohi bo'lindi. To'plam tarkibida kirgan asarlardan dastlabkisi bu "Tahsil usul al-fiqh va tafsil al-maqolot fiha ala al-vajh" ("Usulul-fiqhni o'rganish va u to'g'ridagi umumiy qarashlarning

³ Булгаков П.Г. Неизвестный энциклопедический труд XII века // Общественные науки в Узбекистане. – 1976. – № 11. – Б. 57-61; Булгаков, 1991. – Б. 67-68.

⁴ Мұхаммадаминов С.А. Абу Ҳафс ан-Насафиининг "Матла ан-нужум ва мажма ал-улум" асари ва унинг Марказий Осиё ислом илмлари ривожида тутган ўрни (XI аср охри - XII аср ўрталари): тарих ф.н. ... дисс. – Тошкент: ЎзР ФАШИ, 2012.

⁵ "Матла‘ ан-нужум"нинг 36а -181а гача бўлган варакларидан ўрин олган.

tafsiloti") deb nomланади. Bu kitob "Usulul-fiqh" соҳасидага ўзилган. Шу ваqtgacha Abu Hafs Nasafiyning usulda ўзилган бу асари номалум bo'lган. Abulhasan Ubaydulloh ibn al-Husayn ibn Dallal al-Karxiyning (260–340/873–952 yy) "Risola" асарига Abu Hafs Nasafiy sharh ўзади. Faqat ushbu асаригина Nasafiyning usulda ўзилган yagona асари sifatida e'tirof etib kelingan. Balki, bu асар yagona kitob holatida emas, "Matla' an-nujum" тарқибидага bo'lганligidan оmmaga keng tanilmagандир. Bu асар то'плам тарқибining 26a-44a varaqларидан joy олган.

Risola hajmi 22 varaq, то'плам varaqларининг о'lchами 27,5x33sm., matн о'lchами 20,5x22,5sm.dir. Risola qо'lyozmasining mazkur nusxasi ko'chiruvchisi Muhammad ibn Homid ibn Ali al-Buxoriy (laqabi Sharaf al-Homidiy) bo'lib, nusxa 765 / 1363-yilda yakunlangan.⁶

Bu risolaning o'ziga xos jihatлari ko'p. Masalan, Abu Hafs Nasafiy yashagan davr, ya'ni XI-XII asrlarda Movarounnahr diyоридаги ilmiy muhitni qanchalik darajada ekanligini bilish mumkin. Sababi olim bu асаридаги "Usulul-fiqh" соҳасидага nafaqat Movarounnahr уламолари balki boshqa yurt уламоларининг ham qarashларини keltirib o'tadi. Jumladan, асарда Abu Hafs an-Nasafiy "diyorimizning keyingi davrlar olimларидан Abu Zayd ad-Dabusi" va "bag'dodlik mashoyixларимиздан al-Karxiy" va "al-Jassosning nazdida" deya mashhur уламоларинга fikrlарини ham eslab o'tadi. Samarqand, Buxoro va Balx shaharlari olimларининг "Usulul-fiqh" ilmidagi ba'zi masalalar borasидаги qarashларининг qiyosiy tahlili yoritilishi ham асарнинг qiymatini oshiradi. Bundan ko'rinadiki, Abu Hafs Nasafiy bir davrning o'zida isлом оламидаги mahalliy va boshqa yurt уламоларинга qarashларидан boxabar bo'lган.

Asarni o'рганиш jarayонида Abu Mansur al-Moturidiy Abu Hafs Nasafiyning katta ustozларидан ekanligiga, асарда u kishidan iqtiboslar keltirganligiga, Abu Mansur al-Moturidiy nafaqat aqida ilmining majoziy ma'nодаги asoschisi, balki fiqhda ham yetishgan olim bo'lганligiga, u kishi bu sohada bizning davrimizgacha yetib kelmagan "Ma'xaz ash-sharoyi" va "Kitob al-jadal" асарларини ўзиганligiga

⁶ Нажмуддин Абу Ҳафс Умар ибн Мұхаммад ибн Ахмад ан-Насафи. Тахсил усул ал-ғиққ (тадқиқот ва таржима) / Нашрға тайёрловчилар: Ҳ. Аминов, С. Мұхаммадаминов. – Т. «Ношир», 2015. – 19 б.

guvoh bo'lish mumkin.

Olim hanafiy fiqhini yoritish bilan birga hadis ahli(ahli-hadis),⁷ mu'taziliylar, murjiya va ismoiliya ka'bi boshqa mazhab va firqalarning ijmo‘ va qiyosning mohiyati borasidagi qarashlarini ham tushintirib o'tganligini ko‘rish mumkin. E'tiborli tomoni shundaki, olim yuqoridagi firqalar haqida ma'lumot berar ekan ularning birortasiga raddiya bermaydi. Ma'lumot sifatida keltiradi. Asarni qisqa qilib, unda “Usulul-fiqh” ilmidagi barcha qonun-qoidalarni kichik bir asarda muxtasar qilib keltiradi. Bu ham o'rta asrlardagi Movarounnahr ilmiy muhitini chuqurroq aniqlashga katta yordam beradi.

Asarning yozilish uslubi ham hanafiy mazhabi tartibida bo'lib, avval Qur'on, sunna, ijmo‘, qiyosdan iborat bo'lgan asosiy to'rt manbasini keltirib, keyin Qur'onga asoslanib dalil keltirishning ibora (bayon qilish), ishora, izmor (boshqa ma'noda ishlatish), dalolat (dalolat berish) va iqtizo‘ (hukmni aniqlashga yordam berish) degan usullarini ham borligini aytib o'tadi. Usuldagagi barcha qonun qoidalarni qisqa va lo'nda qilib, tushunarli tilda yoritib o'tkandan so'ng risolaning oxirida Abulhasan al-Karxiyning “Risola”sida kelgan usuldagagi 39ta fiqhiy qoidalarni ham kiritadi. Oldin aytib o'tkanimizdek, Abu Hafs Nasafiy Abulhasan al-Karxiyning “Risola”siga alohida sharh ham yozgan.

Bir so‘z bilan aytganda bu risola shofi‘iylik va hadis ahlining fiqhga oid qoidalari hamda mahalliy ulamolarning usul al-fiqhga oid qarashlarini o'rganishda ham katta ahamiyatga ega.⁸

Bu asar “Matla‘ an-nujum va majma‘ al-‘ulum” to‘plamidan alohida kitob holatida Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalari markazining 2013–2015 yillarga mo‘ljallangan Yosh olimlar fundamental granti (№ YOF 1-FA-1-14287) doirasida ustozlar S.

⁷ **хадис аҳли** [арабча шакли: асҳоб ал-ҳадис, аҳл ал-ҳадис] – диний-хуқуқий масалаларни ечиш ва амалий фаолиятда фақатгина Куръони карим ва ҳадисларга таяниш лозимлигини таъкидловчи ва бу борада мустақил фикрлаш асосида ҳукм қилишни, жумладан қиёс ва ижмоъни рад этувчи факихлар. Ҳадис аҳли ислом фикҳида диний-хуқуқий масалаларни ечишда Куръони карим ва ҳадисларга таянишдан ташкари мустақил фикрлаш, жумладан қиёс, ижмоҳ ва бошқалар асосида ҳукм қилиш тарафдори бўлган **раъй аҳлига** [арабча шакли: асҳоб ар-раъй, аҳл ар-раъй] қарама-карши позицияда турган.

⁸ Мұхаммадаминов С. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг усул ал-фиқхга оид бир рисоласи // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – № 1. – Тошкент, 2007. – Б. 85–88.

Muhammadaminov va H. Aminovlar tomonidan nashrdan chiqarilgan.⁹

Abu Hafs Nasafiyning “Matla‘ an-nujum va majma‘ al-‘ulum” to‘plamidan keyingi o‘rinni olgan fiqhiy asari bu “Mashori‘ ash-sharoyi” (Shariat [qonunlari] namunalari) deb nomlanadi.¹⁰ Bu asarni olim fiqhning “Furul-fiqh” sohasida yozgan. Asar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan bu asar Movarounnahrda Qoraxoniylar hukmdorligi paytida yozilgan dastlabki furu kitoblardan sanaladi. Eng qizig‘i shundaki, musulmon olamida mufassir, faqih, muaddib sifatida mashxur bo‘lgan Abu Hafs Nasafiyning ijodi bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar uchun “Mashori‘ ash-sharoyi”ning faqat nomigina ma’lum bo‘lib, asarning o‘zi mavjudligi haqida ma’lumot bo‘lmagan.¹¹ Lekin S.A. Muhammadaminov tomonidan Nasafiyning bu asari to‘liq shakli “Matla‘ an-nujum va majma‘ al-‘ulum” to‘plamining ichida mavjud ekanligi aniqlangan. U 42a-162a sahifalarda joylashgan bo‘lib, 118 varaq, 50 kitob va 100 fasldan ko‘proqni tashkil etadi.¹²

Shu bilan birga bu kitobning bir nusxasi Toshkentda bo‘lishi bilan birga uning boshqa bir nusxasi Hisndiston respublikasining Rampur shahridagi “Raza” kutubxonasida saqlanadi. U nusxa ham “Matla‘ an-nujum va majma‘ al-‘ulum” to‘plamining tarkibida joylashgan. Har ikkala kitobning farqli jihatlari mavjud. Eng ishonchlirog‘i Toshkent nusxasi hisoblanadi. Abu Hafs Nasafiy bu asarni yozib tugatgandan so‘ng o‘g‘li Abullays Ahmadga (501-551 hij) imlo qildirgan va o‘g‘li u kitobni o‘z qo‘li bilan yozib olgan. Hozirgi nusxasi ham aynan shudir.

Bu kitobning yozilish uslubi ham o‘ziga xos tartibda bo‘lgan. Abu Hafs Nasafiygacha “Furuul-fiqh” sohasida yozilgan kitoblarda, jumladan “al-Hidoya”(Burxoniddin Marg‘iloniy), “Badoi al-Sanoi fiy tartib al-sharoi”(Ahmad

⁹ Нажмуддин Абу Ҳафс Умар ибн Мухаммад ибн Аҳмад ан-Насафий. Таҳсил усул ал-ғиққ (тадқиқот ва таржима) / Нашрга тайёрловчилар: Ҳ. Аминов, С. Муҳаммадаминов. – Т. «Ношир», 2015. – 2 б.

¹⁰ Муҳаммадаминов С.А. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Матла ан-нужум ва мажма ал-улум” асари ва унинг Марказий Осиё ислом илмлари ривожида тутган ўрни (XI аср охири - XII аср ўрталари): тарих ф.н. ... дисс. Avtoreferat – Тошкент: ЎзР ФАШИ, 2012. – 20 б.

¹¹ Рахимжонов Д. Абу Ҳафс Насафий ва унинг «Китоб ал-қанд» асари / Монография. – Тошкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020. – 18 б.

¹² Муҳаммадаминов С.А. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Матла ан-нужум ва мажма ал-улум” асари ва унинг Марказий Осиё ислом илмлари ривожида тутган ўрни (XI аср охири - XII аср ўрталари): тарих ф.н. ... дисс. Avtoreferat – Тошкент: ЎзР ФАШИ, 2012. – 20 б.

Kosoniy) ka'bi kitoblarda uchramaydigan bir holatni uchratish mumkin. Unda olim turli masalalarga yechim berishda faqat javobning o'zini keltirish bilan kifoyalanadi. Uning isboti sifatida oyat va dalillarni aytib o'tmaydi.¹³ Bunda olim o'zigacha bo'lgan hanafiy olimlaridan ajragan degan fikr chiqmaydi. Undan tashqari bu kitob mavzular ko'لامи jihatidan yuqoridagi kitoblardan kattaroq hajmli bo'lib mavzularni tushintirishda ixchamroq shakldadir. Albatta, Nasafiy bu asarini yozishda "Zohir rivoya" kitoblari va boshqa mazhab ulamolarining ilmlaridan keng foydalanadi. Nasafiyning ilmdagi hosil qilgan usuli o'ziga xosligini shundan ham bilsa bo'ladi. Olim kitob yozish asnosida duch kelgan mazhab asoschilari va mujtahidlar orasidagi turli ixtilofli masalalarga yechim sifatida "tarjih"¹⁴ uslubidan foydalanadi. Uning bu asari o'sha davrdagi madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan. Bu asar olim yashagan zamondan keyingi davrlarda ijod qilgan ahli ilmlar uchun ham asosiy manba bo'lib hizmat qilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, Mahmud al-Ustrushoniy al-Hanafiy, Qozi Samoviy(Mahmud ibn Ismoil), Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja ka'bi olimlarning asarlarida va Movarounnahrda ba'zi muftiy va qozilarning ishlab chiqqan jo'nglari¹⁵ bu asardan keng foydalanilganligini ko'rish mumkin. Abu Hafs Nasafiy bu asarida hozirda ham biz uchun muhim bo'lgan tarixiy va shar'iy malumotlarni keltirib o'tgan. Jumladan, bu kitobda ibodat masalalari, hokimiyatning o'z fuqarolari, turli din vakillari, jumladan "ahli zimmalar" hamda jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar tushinrtirib o'tilgan.

Ushbu kitob bo'yicha xulosa shuki, XI-XII asrlarda Movarounnahr hududida ushbu kitob asosiy shar'iy qo'llanma sifatida ko'rilgan va jamiyat ilm ahlining dasturiy kitoblaridan biri hisoblanadi.

To'plamda "Furuul-fiqh" sohasida yozilgan yana bir kitob mavjud bo'lib olim

¹³ Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Nasafiy. Mashori' al-shara'i asarining ilmiy-tanqidiy nashri. Ilmiy-tanqidiy nashr tuzuvchisi: S.A. Muhammadaminov. – Toshkent. O'zR FA "Fan"nashriyoti, 2021. – XI b.

¹⁴ Tarjih deb mazhab asoschilari va keyingi davr mujtahid ulamolaridan kelgan rivoyatlarning (qarori) ichidan afzalini tanlab olishga aytildi.

¹⁵ Jo'ng so'zi to'plam, majmua ma'nolarini bildiradi. Markaziy Osiyoda bu termin asosan fiqhning ibodat va muomalat bo'limlariga bag'ishlangan to'plamlarga hamda yuridik hujjatlarning formulyarlari va rivoyat hujjat namunalari majmularida nisbatan ishlatalgan.

uni ham yoritib, tushintirib o'tgan. Bu kitobning nomi “Kitob al-muzokarat val-imtihon fil-masoyil al-hison” (Foydali masalalar uchun muzokara va imtihon kitobi) deb nomланади. Uni mashhur qozi al-quzzot Abu Abdulloh ad-Damg‘oniy (vaf. 1085) yozган. Asarda “Furuul-fiqh”ning ibodat hamda muomalot mazvularidagi ilmlar savol-javob tarzida yozilgan.¹⁶

Allomaning katta to‘plamidan o‘rin olgan keyingi asarlari fiqhning faroiz yo‘nalishida yozilgan bo‘lib ular “Nazm al-faroiz” (Faroiz nazmi), “Nazm al-masoyil al-mu‘ayyat fil-faroiz” (Faroizdagi mushkil masalalar nazmi), “Maso’il min hubsiha” (Hubs masalalaridan) asarlaridir. Bu asarlari ham o‘ziga xos tarzda yozilgan. Ularni ikkiga bo‘lib o‘rganish mumkin. Birinchi asari “Nazm al-faroiz” to‘liq kitob holatida yozilgan bo‘lsa, qolgan ikkitasi savol-javob shaklida yozilgan. Olimning “Nazm al-faroiz” asari Abu Mansur Mahmud al-Muhallabiy ismli olim qalamiga mansub bo‘lib Abu Hafs Nasafiy uni to‘liqroq ko‘rinishda yoritgan. U kishi X arsda Samoniylar davlati davrida ijod qilgan. Bu asar “Faroiz ilmi” (meros ilmi)da juda muhim manbalardan hisobланади. Jumladan, bu asarda merosxo‘rlar va ularning meros olish darajalari, ulushlari hamda mayyitning meros olmaydigan qarindoshlar haqida to‘liq mulohazalar keltirilgan. Jumladan, Burhonuddin Mahmud “Muhit”da Abu Hafs Umar Nasafiydan naql qilgan quyidagi fikrni keltiradi: “Men meros bo‘yicha (hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi haqida) fatvo yozgan edim. Unda shartlarni juda qattiq qilib belgiladim. So‘ng uni shayxul-islom Ali ibn Ato ibn Hamza So‘g‘diyga ko‘rsatganimda, u to‘g‘ri deb bilmadi. U “oxiriga ”“ harfini qo‘sib, مرباٹ ترکه, ya’ni “uni meros sifatida qoldirdi” deb yozsang, to‘g‘ri deb hisoblayman”, dedi”.¹⁷ Shundan ham ko‘rinadiki, prosessual hujjatlarni rasmiylashtirish bo‘yicha berilgan fatvolar hamisha keng ilmiy jamoatchilik e’tiborida bo‘lgan. To‘plamdagagi ikkinchi asar “Nazm al-masoyil al-mu‘ayyat fil-faroiz” Abu Najo Muhammad ibn Mutahhir ibn Ubayd al-Forizning qalamiga mansubdir. Uchinchi asar esa Ali ibn Muhammad an-Nasaviyning ismiga tegishli.

¹⁶ Матла‘ ан-нужум. – Вв. 163б -169а.

¹⁷ Бекмирзаев И.И. Мовароуннахр қозилик тизими ривожида Бурхониддин Маҳмуд ал-Бухорийнинг ўрни ва «ал-Муҳит ал-Бурхоний» асарининг аҳамияти (XI-XIII асрлар). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган (DSc) ... дисс. Автореф. – Т.: Тошкент ислом университетида . 2017. – Б. 176.

Bu asarlar yuqorida aytib o'tilgani kabi savol-javob tarzida yozilgan. Bu kitoblarda meros ilmiga oid barcha qoidalarni mustahkamlab olishga xizmat qiladigan usullar va tartiblar yoritilgan. Abu Hafs Nasafiyning meros ilmini ochib beradigan kitoblarni yozishi va ular bilan shug'ullanganligidan olimning katta faqih bo'lganligini tushinish mumkin. Hamda bugungi kunda fiqh ilmida yozilayotgan savol-javob kitoblarining tarixi majoziy ma'noda Nasafiy davriga borib taqalishini bilib olish mumkin.

Nasafiyning bu mashxur to'lamida yana bir "Furuul-fiqh" ilmida yozilgan kitobi mavjud. U kitobning nomi "At-taharir al-muxtora fil-xilofiyot ad-davvora" (Doimiy aylanib yuruvchi xilofli (rivoyatlar)ga tanlangan hujjatlar kitobi) deb nomланади. Olim bu asarida fiqhning "xilofiyot"¹⁸ yo'naliشida ijod qilganligini ko'rish mumkin. Abu Hafs Nasafiy bu kitobida hanafiy mazhabida amaliy fiqhning ixtilofli masalalarini qiyoslash orqali ularga yechim topishga harakat qilgan. Ixtilofli masalalarga misol qilib voyaga yetmagan bolaning zakot berishi yoki bermasligi masalasini aytish mumkin. Ushbu masalaga olim quyidagicha javob beradi. Shariatda voyaga yetmagan bolaga namoz o'qish va ro'za tutish fazr bo'limgani ka'bi unga agar zakot nisobidagi puli bo'lsa ham zakot berish farz bo'lmaydi deb javob bergen. U bolaning zakot bermasligiga qiyoz namoz va ro'za bo'ladi deyiladi. Shunga o'xshash "Furu"dagi ba'zi nozik masalalarga olim bu asarida o'z qarashlarini keltiradi.

Nasafiyning to'plamda yuqoridagi kitobidan tashqari yana boshqa kitobi ham mavjud bo'lib u "Kitob addi al-masoil al-hison allati axaza fiha asxabuna bil-qiyos duna al-istihson" (Istihson dan qiyos (hukmi)ga ko'ra asxoblarimiz olgan bir necha yaxshi masalalar kitobi")¹⁹ deb nomланади. Bu asar kichik bir risola ko'rinishida bo'lib unda Nasafiy hanafiy ulamolar 22ta masalalarda istihson dan ko'ra qiyosga qarab chiqarilgan hukmlarni qabul qilganliklari alohida ta'kidlangan. Bu hol ham

¹⁸ Xilofiyot – faqihlar o'rtasida yuz bergen ixtilofli masalalarini o'rganuvchi fiqh ilmining bir yo'naliшhi

¹⁹ Мухаммадаминов С.А. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг "Матла ан-нужум ва мажма ал-улум" асари ва унинг Марказий Осиё ислом илмлари ривожида тутган ўрни (XI аср охири - XII аср ўрталари): тарих ф.н. ... дисс. Автoreferat – Тошкент: ЎзР ФАШИ, 2012. – 18 б.

yuqoridagi voyaga yetmagan bola to‘g‘risidagi qarashining isboti o‘larоq keltirilgan bo‘lishi mumkin. Alloma bu asarida hanafiy fiqhidiagi ulamolar qabul qilib kelayotgan hukmlarning uslubiy jihatlarini (qiyos, istihson) keng ochib berishga harakat qiladi. Shu bilan birga Nasafiyning o‘zi ham hukm olishda istihson emas avval qiyosni ustun qo‘yganligini shu asaridan bilib olsa bo‘ladi. Ushbu holatdan ham Nasafiyning fiqh ilmida daqiq faqihlardan bo‘lganligi ma’lumdir.

Majmuada qozilik hujjatlariga aloqador asarlar mavjud. Islom dini va huquqi Movarounnahrga kirib kelishi bilan, hatto undan ham oldin mintaqada majburiyat va shartnomalar to‘g‘risida fikrlar bo‘lgan va amaliyotda qo‘llanilib kelingan. Islom huquqi asosida Movarounnahr faqihlari fuqarolik huquqi tushunchalarini kengaytirib, qayta ishladilar. Bu jarayonlarda Burhoniddin al-Marg‘inoniy, Abullays as-Samarqandiy, Abu Hafs Umar an-Nasafiy kabi shariat olimlari tomonidan yozilgan asarlarda shartnomalar, ularning alohida turlari ko‘rsatilgan bo‘lsa ham, majburiyat huquqining nazariy qoidalari to‘la yoritilmagan va oxirigacha bir tizimga solinmagan.²⁰ Ammo bu holat Movarounnahr diyorida ilk islom tarixi davrida edi. Yuqoridagi olimlardan keyin qozilik va sud tizimlari islom shariatida mukammal darajada tizimga solingan. Albatta, keyingi davr olimlari uchun yuqoridagi allomalar asarlari yagona dastur bo‘lib xizmat qilgan.

Najmuddin Nasafiyning islom huquqshunosligining qozilik va sud tarmog‘ida ham keng ijod qilganligi uning yozib qoldirgan asarlaridan ma’lum. Jumladan, olim qozilik va sud tizimining “mahzar”²¹ va “sijil”²² ka’bi ikki tarmog‘larida asar yozgan. “Mahzar” sohasida “Muxtasar as-sukuk alan-nahj al-masluk fiy shiro” (Sotib olish yo‘lida muxtasar hujjatlar) kitobini hamda “sijil” ilmida esa “Multaqitot min ar-rusum lil-quzzot val-xusum” (Qozilar va xusumatchilar uchun

²⁰Рахманов А.Р. Ислом хукукида шартнома ва мажбуриятлар ҳамда миллий қонунчилик. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган (DSc) ... дисс. Автореф. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси, 2008. – 5 б.

²¹ **маҳзар** [арабча – ҳозир бўлиш жойи] – қозилик суди жараёнини қайд қилиб борадиган ҳужжат бўлиб, унда факат судда иштирок этувчи томонлар даъволари ва жавобгарнинг даъвога муносабати ҳамда гувоҳларнинг кўрсатмалари кўрсатиб ўтилади.

²² **сижил** [арабча – ҳужжат] - қозининг чиқарган ҳукми бўлиб, бунда кўтарилиган даъво ва ушбу иш бўйича қозининг ҳукми кўрсатилган. Каранг: Бекмирзаев И.И. Мовароуннахр қозилик тизими ривожида Бурхониддин Махмуд ал-Бухорийнинг ўрни ва «ал-Муҳит ал-Бурхоний» асарининг аҳамияти (XI-XIII асрлар): Тар. фан. номз. ... дис. – Тошкент: ТИУ. 2008. – Б. 49.

(hujjatlashtirish) rusumlaridan topilmalar) asarini yozgan. Olim bu asarlarda qozilik hujjatlari namunalarini juqur ochib bergan. Hozirda qozi bo'lib turgan va qozilikni niyat qilgan ahli ilmlar uchun keng yo'riq va ko'rsatmalar bayon qilingan. Abu Hafs Nasafiy qozilarga ish yuritish uchun turli shartlarni belgilab bergan. Jumladan, qozining yozma qarori haqiqiy ijro kuchiga ega bo'lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi shart bo'lган: – hujjatga qozining lavozimini tasdiqllovchi sulton tomonidan berilgan qozining ismi, qozilik hukmi o'tadigan hudud nomi tushirilgan muhr nishonasi bo'lishi kerak; – yozma qaror yoki hukm hoshiyasida yuridik jihatdan asoslanadigan dalil-hujjat, olingan manba va shaxs nomi ko'rsatib qo'yilishi kerak; – yozma qarorda ko'rilgan ishning yoki boshqa hudud qozisiga yo'llanayotgan murojaatnomaning qisqacha mazmuni va sabablari ko'rsatib o'tilishi kerak; – yozma qaror qo'zg'atilgan mahkama ishi bo'lib, unda albatta, guvohlarning ismi sharifi va da'vogarlarning da'vosi qozi tomonidan asoslab yozib qo'yilishi shart; – yozma qarorda hujjat yoki da'vo ishi ko'rilgan joy, sana, oy, kun va qozi mahkamasi kotibining ismi-sharifi ko'rsatilishi shart bo'lган.²³ Bundan ko'rinadiki, yuqoridagi shartlardan birortasi tushib qolgan taqdirda, hukm yoki yozma qaror to'liq yuridik kuchga ega bo'lмаган deb hisoblanadi. Hamda, yuqoridagi talablar boshqa hudud qozisi tomonidan birdaniga ijro qilinmagan.

Bundan tashqari unda ikki shaxs o'rtasida tuziladigan savdo-sotiq, nikoh va shunga o'xshash shartnomalar hujjatlari bilan amalga oshiriladigan insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ham o'z aksini topgan.

"Mahzar" sohasida ham olim hajjat ishlarini tartibga soluvchi tizim yaratgan. Jumlasdan, Umar Nasafiy da'vo hujjatlari turkumiga kiruvchi mahzarda barcha jarayonni ko'rsatish va guvohlik lafzlar katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, mahzar hujjatlarni quyidagi jumlalar bilan boshlashni taklif etadi:
يَقُولُ لِلْفَاضِيَّةِ الَّتِي ذُكِرَ لِقَبْهُ وَنَسْبَهُ وَامْسَهَادًا تَوْفِيقَهُ امْلَوْيَلَ لِعَمَلِ الْقَضَاءِ وَأَوْلَ مَالَ لَهُ ...
أَهْلَهَا مَنْ قَبْلَ لَا خَلَقَ فَالنَّبِيُّهُ لَقَوْا عَدْمَكَهُو أَعْزَنْصَرَه
حَكَامَ بِخَارَبَونَ وَاحِيَهَا أَنْفَذَ الْقَضَاءِ بَنِيَ
Tarjimasi:

²³ Бекмирзаев И.И. Мовароуннахр қозилик тизими ривожида Бурхониддин Маҳмуд ал-Бухорийнинг ўрни ва «ал-Муҳит ал-Бурхоний» асарининг аҳамияти (XI-XIII асрлар). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган (DSc) ... дисс. Автореф. – Т.: Тошкент ислом университетида . 2017. – Б. 95.

Falonchi xoqon (Alloh uning podshohligini mustahkam qilsin va g‘alabasini aziz qilsin) nomidan Buxoroda qozilik ishi va hukmlarni boshqaruvchi va Buxoro va uning atrofida yashovchi aholi orasida qozilik va imzo ishlarini bajaruvchi falonchi (ismi, laqabi va nasabi) qozi (Alloh uning tavfiqini bardavom qilsin) aytadiki...²⁴

Shuningdek, olimning yuqoridagi fiqhning bu tarmog‘ida yozilgan ikki asaridan tashqari yana bir asari bor bo‘lgan. Bu asar “Faroiq al-vasoiq” deb nomlangan. Nasafiy bu asariga “Matla an-nujum” to‘plamining fiqh bo‘limida ishora qilib ketgan. Jumladan unda: (Biz (batafsil) “Faroiq al-vasoiq” (Turli hujjat vasiqlari) nomli kitobimizda zikr qilganmiz) ka’bi ishora bergenini kuzatish mumkin.²⁵

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hozirgi kunda yuqoridagi Nasafiyning qozilik hujjati namunalari Movarounnahr tarixiga oid eng qadimiy hujjatlar to‘plamlaridan hisoblanib ulardan keng istefoda etilmoqda.

Bu o‘lkada davlatchilik an’analarining rivojiga katta hissa qo‘shtigan. Buning isboti sifatida Abu Hafs Nasafiyning katta qozilardan bo‘lganligi ham yetarlidir.

Shuni ham aytish kerakki, O‘rta asrlarda Movarounnahr o‘lkasidan yetishib chiqqan mashxur olimlarning shu darajaga yetishlarida olimning katta hajmdagi asarlarining o‘rni beqiyosdir. Nasafiyning yuzlab shogirtlari bo‘lganligi ham fikrimizni isbotlaydi.

²⁴ Бекмирзаев И.И. Мовароуннахр қозилик тизими ривожида Бурхониддин Маҳмуд ал-Бухорийнинг ўрни ва «ал-Мухит ал-Бурхоний» асарининг аҳамияти (XI-XIII асрлар). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган (DSc) ... дисс. Автореф. – Т.: Тошкент ислом университетида . 2017. – Б. 196.

²⁵ Матла‘ ан-нужум. – Вв. 163б -169а